

# O'qituvchining Mantiqiy Fikrlashini Rivojlantirish Pedagogik Muammo Sifatida

*G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat bilim va malakaga, balki o'quv jarayonida muammolarni samarali hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Bu esa o'qituvchining kasbiy faoliyatida mantiqiy tafakkur o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mantiqiy tafakkur — bu muammolarni tahlil qilish, ularga yechim topish va qaror qabul qilish jarayonlarini amalga oshirish imkonini beruvchi vositadir. Shunday ekan, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish har qanday o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi.

Ushbu maqolada o'qituvchining o'quv jarayonida mantiqiy tafakkurni qo'llash imkoniyatlari, bu jarayonda duch keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, o'qituvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy usullari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mantiqiy fikr, ijodiy fikr, intellektual salohiyat, pedagogik mahorat.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuksak malakali, mantiqiy fikrlashga qodir pedagoglarni tayyorlash dolzarb masalaga aylangan. Mantiqiy fikrlashning takomillashgan nuqtasiga erishish bo'lajak mutaxassislariga ta'lim muassasasining boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars mashg'ulotlari boshqarish sharoitlarida bu, bir tomondan, tanlovning yoki yechim mantiqiy ishlanmasining asoslanganligi, uni amalga oshirish, ikkinchi tomondan, o'quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalarning manfaatdorliklari, o'z-o'zini boshqarish organlarining qo'llab-quvvatlashlari kabi ijobiy koeffisientni oshirishga yordam beradi.

Pedagogik mehnatda o'qituvchining mantiqiy individuallashtirish jarayoni quyidagi turli ifodalarga ega bo'lishi mumkin:

- kasbiy xulq va faoliyatda o'xshamaslikning qisman yoki epizodik namoyon bo'lishi sifatida individual farqlar;
- kasbiy faoliyatda uzoq vaqt davomida barqaror saqlanadigan individual metod, kasbiy faoliyat usullari va vazifalarini individual umumlashtirish;
- o'qituvchi shaxs mehnatida betakrorligi, o'ziga xosligining ifodalanishi sifatidagi individuallik, individual kasbiy dunyoqarash, ko'pincha shaxsning mehnatidagi kasbiy turining individual varianti.

Mantiqiy fikrlash bir tomondan individualizm ikkinchi tomondan haqiqatning asliyati va ijodiy individuallikning asosi, o'z-o'zini anglashning samarali formasi hisoblanib, u quyidagi psixologik xarakterlarni ham nazarda tutadi:

- o'zini boshqalar qiyoslaganda shaxs betakrorligini anglash;
- o'zi to'g'risidagi kreativ ifodalanish va tasavvurlarning namoyon bo'lishi;
- individual intellektual (mantiqiy tafakkur birligi) xususiyatlar yaxlitililigi va uyg'unligi, ichki birligi;
- shaxs o'z-o'zini rivojlantirish, uning ijodkor sifatida shakllanishi jarayonining asl mohiyati, mantiqiyiligi, dinamikligi va uzluksizligi;

<sup>1</sup> Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti



- shaxsning o'z-o'zini ta'kidlashi va o'zining kompetentligini anglashi;
- ijodkorning o'z-o'zini amalga oshirishi va o'zining ahamiyatliligini shaxsiy va ijtimoiy aspektlarda anglash.

Shunday qilib, o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilishi funksional komponentlar, mezon, daraja va tuzilish komponentlaridan iborat.

Demak, bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda darslik va o'quv qo'llanmalarga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni inobatga olish, fan va texnika yutuqlaridan, ularning bunyodkorlik sifatlaridan keng foydalanish lozim bo'ladi. Bunda yo'naltirilgan topshiriqlarning pedagogik xarakterini inkor etib bo'lmaydi. Shunday qilib, ilmiy, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha «mantiqiy fikrlash» tushunchasiga zamonaviylik kontekstida baho berish zaruriyati ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lganligi ilmiy jihatdan asoslanildi. Kuzatishlar mobaynida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga metodik tayorgarligi holati quyidagi xarakterga ega va ba'zi asosiy mezonar asosida yanada rivojlanishi, yaxshilanishi mumkinligi faraz qilinmoqda:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga beriladigan darslarida o'quv materialini idrok etishda, asosiy va mohiyatan birlamchi fikrlarni aniqlay olish;
- analiz, sintez, analogiya, bashorat qilishga o'rgatishning fundamental bilimlarini berib borish;
- talabalarda ilmga chanqoqlik, mustaqil hayotga tayyorgarlik kabi hislatlarni o'stirish;
- ular shaxsining intellektual darajasini taraqqiy ettirib, bahs-munozara yuritish madaniyatini shakllantirish.

Ta'lim sferasidagi demokratik va innovatsion kayfiyatdagi o'zgarishlar ta'sirida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'zlarining mantiqiy dunyoqarash va kasbiy rivojlanish muammolarini hal qilishda tanlash erkinligini, mustaqil ijodkorlik va izlanish imkoniyatlarini afzal ko'radilar.

Shuningdek, mantiqiy yondashuvlar va interfaol metodik texnologiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarda kasbiy-fikriy kompetentlikni rivojlantirish modeli va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish nuqtai nazaridan pedagogik modellashtirish mohiyatiga to'xtalib o'tishni tadqiqot muammosining hozirgi ilmiy shart-sharoiti va holati ham taqozo qiladi. Mazkur masalaga yaqin va umuman ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar amalga oshirilish xususiyatiga ko'ra, asosan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, dual ta'lim, pedagogik texnologiyalar klassifikatsiyasi, integrativ, kreativ va kognitiv kompetensial sharoitida o'quvchilar va talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadlarini qamrab olganligi mavzu bo'yicha olib borilgan bibliografik tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldi. Shu nuqtai nazardan unda mantiqiy fikrlash, pedagogik tafakkur masalalari bo'yicha aniq funksional pedagogik algoritm ilmiy maydonda ishlab chiqilmaganligi ham ayni damda masalaning dolzarb ilmiy-amaliy holati va o'rganilish zaruruatidan dalolat beradi.

Amaldagi holat va dolzarblikdan kelib chiqqan holda mantiqiy fikrlashni metodik rivojlantirishning pedagogik xaritasini tuzish va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning ikki tomonlama, ya'ni bevosita o'qituvchilarning o'quvchilar dunyoqarashini tafakkuran teran shakllantirishida amaliy ko'mak beradigan va pedagogik kasbiy tafakkur kompetensiyalarini kompleks holatda jamlaydigan modelni yaratish zarur ilmiy vazifa hisoblanadi.

Aytish o'rinliki pedagogik qayta tayorlash va ta'limni tashkil etish jarayonida ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish va mamlakatimiz ta'lim amaliyotiga moslashtirish har bir fan tarmog'i va ilmiy faoliyatning asosiy obyekti hisoblanadi.

Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ushbu ko'nikmalar va bilimlarni egallaganidan so'ng uning oldida ta'lim standartlari bo'yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdek muhim vazifalar turadi.



Bugungi kunda pedagoglarga qo'yiladigan zamonaviy talablar ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uni tashkil etishning kognitiv, o'yin, izlash va tarbiyaviy o'zaro ta'sir elementlari sintez qilinadigan yangi shakllaridan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Jamiyatga noan'anaviy qarorlar qabul qiladigan va bundan qo'rqmas, mustaqil fikrlaydigan, intellektual kuchli va ijodkor insonlar kerak.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022.
2. A. A. Mavlyanov "MANTIQ" Toshkent 2006 5-b
3. Кириллов В.И. Логика. – М., 2004. – С. 5.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati / Z. M. Ma'rufov tahriri ostida. T. 1. – 2011. – 446-b.
5. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. TA'LIM FIDOYILARI.
6. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MURAKKAB MASALALARNING AHAMIYATI. Scienceweb academic papers collection.
7. Ganiyeva, M. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR METHODICAL PREPARATION OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Science and innovation, 3(B5), 178-182.
8. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ TECHNOLOGY in the Formation of Inventive Abilities of Primary School Pupils. International Journal on Integrated Education, 4(9), 161-163.

